



AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING FUQAROLIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTI

Orinbetov N.T.

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI dotsent v.b., p.f.f.d. (PhD)

Tayanch so'zlar: didaktika, didaktik ta'minot, modellashtirish, klaster, tizimli yondashuv, axborot, raqamli axborot, tarqatma materiallar.

Ключевые слова: дидактика, дидактическая ресурсы, моделирование, кластер, системный подход, информация, цифровая информация, раздаточные материалы.

Key words: didactics, didactic support, modeling, cluster, systems approach, information, digital information, handouts.

Ilm-fanni talab qiluvchi texnologiyalarning jadal rivojlanishi, jamiyatdagi jadal ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim paradigmasini o'zgaritirishga va "butun hayot uchun ta'lim"dan "butun hayot davomida ta'lim"ga o'tishga turtki bo'lmoqda. Shunga ko'ra, ta'lim jarayonini tashkil etishning maqbul shakllarini izlab topishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Ma'lumki, har qanday ta'lim-tarbiya jarayonida didaktik ta'minot muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik ta'minot – bu inson tomonidan yaratilgan ob'ektlar, shuningdek, ta'lim jarayonida o'quv ma'lumotlarining tashuvchisi hamda o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim, tarbiya va rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida olib boradigan faoliyati uchun vosita sifatida ishlatiladigan tabiiy ob'ektlardir. Ye.V.Shirshov tomonidan "didaktik ta'minot" tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "1. Qog'oz yoki magnit tashuvchilarda aks etgan turli xil pedagogik foydali, mazmunli o'quv ma'lumotlarining ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan o'zaro bog'liqligi; 2. Psixologiya, pedagogika, informatika, ergonomika va boshqa fanlarning talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan, har xil turdagi mazmunli o'quv materiallarini turli xil vositalarda ta'lim va tarbiyalashning didaktik maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan o'zaro bog'lang'an yig'indisini o'z ichiga olgan o'quv-uslubiy majmua" [1].



Umumiy qabul qilingan zamonaviy tipologiya didaktik ta'minotni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Bosma (darslik va o'quv qo'llanmalar, o'qish kitoblari, xrestomatiyalar, ishchi daftarlar, atlaslar, tarqatma materiallar va h.k.);
2. Elektron ta'lim resurslari (ko'pincha, ta'limiy multimedialar, multimedia darsliklari, tarmoq ta'lim resurslari, multimedia universal ensiklopedialari va h.k.);
3. Audiovizual (slaydlar, slayd-filmlar, o'quv videofilmlari, o'quv filmlari, raqamli tashuvchilardagi o'quv filmlari (Video-CD, DVD, BluRay.HDDVD va boshqalar);
4. Vizual planar (plakatlar, devoriy kartalar, devoriy rasmlar, magnit taxtalar);
5. Namoyish qilinuvchi (gerbariylar, mulyajlar, maketlar, stendlar, kesma modellar, namoyishli modellar);
6. O'quv asboblari (kompas, barometr, kolbalar va h.k.);
7. Trenajyorlar va sport jihozlari (avtomobil simulyatorlari, gimnastika anjomlari, sport jihozlari, to'plar va boshqalar);
8. O'quv jihozlari (avtomobil, traktor va boshqalar) [2].

Didaktik ta'minot o'qituvchining jonli so'zi bilan bir qatorda o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hamda har qanday ta'lim muassasasining o'quv va moddiy bazasining elementidir. Ta'lim jarayonining tarkibiy qismi bo'lgan didaktik ta'minot uning barcha boshqa tarkibiy qismlari – maqsadi, mazmuni, shakllari, metodalarini tanlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Biz akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minotini ishlab chiqishda yuqorida keltirib o'tilgan tasniflarga asoslandik.

Akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonida va, xususan, "Tarix", "Tarbiya", "Davlat va huquq asoslari" fanlarini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Ushbu maqolada biz "Davlat va huquq asoslari" fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik ta'minot turlariga alohida to'xtalib o'tamiz.

Barcha fanlarni o'qitishda bo'lgani kabi "Davlat va huquq asoslari" fanini o'qitish jarayonida ham eng samarali ta'sir ko'rsatuvchi vosita audiovizual va multimedia ta'minoti (elektron ta'lim vositalari)dir. Audiovizual ta'minot, shuningdek, multimedia vositalari eng ta'sirchan zamonaviy ta'lim va tarbiya vositalaridir. Multimedia termini bilan dasturiy-apparatli (uskunali) majmua asosidagi informatsion texnologiya aniqlanadi. Multimediali texnologiya intellektual faoliyatni avtomatlashtirish vazifasini hal qilishda uchta stixiya (tovush, matn va grafika, jonli video)ni sintezlash uchun EHM imkoniyatlarini



bizning idrokimiz uchun an'anaviy bo'lgan tovushli va videoaxborotni taqdim etish vositalari bilan birlashtirishni ta'minlash imkoniyatini beradi.

Professional faoliyatda inson axborotning vizual, direktiv, hujjatli, tasviriy, intellektual, tijoriy, ilmiy, norelevant, tezkor, semantik, relevant, referativ kabi turlaridan foydalanadi.

Axborot raqamli (raqamlar); matnli (hariflar, so'zlar, gaplar, matnlar va boshqa); grafikli (rasmlar, sxemalar, diagrammalar, grafikalar va boshqa); tovushli (musiqa, nutq, tovushlar va boshqa); videoaxborot (videofilmlar) formatda saqlanishi mumkin.

O'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayonida didaktik ta'minotdan foydalanish tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Yosh va psixologik xususiyatlarni hisobga olish.

2. Turli xil ta'lim vositalaridan (ta'lim maqsadlarida vizual, audial, kinestetik idrok tizimlari orqali o'quvchilarning his-tuyg'ulari, ongi, xatti-harakatlariga har tomonlama, maqsadli ta'sir qilish uchun an'anaviy va zamonaviy) uyg'unlikda foydalanish.

3. Didaktik maqsadlar va tamoyillarini hisobga olish (ko'rgazmalilik, tushunarlik va h.k. tamoyillari).

4. O'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi ijodi.

5. Ta'lim vositalaridan foydalanganda xavfsizlik qoidalarining ustuvorligi.

Didaktik ta'minot axborot shaklida taqdim etiladi, axborot fan va ta'limning resursidir.

Didaktik vositalar to'g'ri tuzilgan o'quv jarayonining zaruriy tarkibiy qismidir. O'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan o'qitishning tashkiliy shakllari va metodlari tizimiga to'g'ri tanlangan va mohirlik bilan kiritilgan didaktik vositalar ko'rgazmalilik tamoyilini amalga oshirishga yordam beradi [3].

Didaktik vositalar o'quv jarayonida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. O'quvchilar tomonidan voqelikning ayrim qismlarini bevosita bilishga xizmat qilish (kognitiv funksiya).

2. Ular kognitiv qobiliyatlarni, shuningdek, o'quvchilarning his-tuyg'ularini va irodasini rivojlantirish vositasidir (rivojlantiruvchi funksiya).

3. Ular o'quvchi yoshlar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarning muhim manbasini ifodalaydi, ishlab chiqilgan materialni mustahkamlashga, gipotezalarni tekshirishga, bilimlarni o'zlashtirganlik darajasini tekshirishga yordam beradi va hokazo (didaktik funksiya).

Didaktik material quyidagi turlarga bo'linadi:



1. O‘quvchilarga turli axborot manbalari (darslik, xaritalar, ma’lumotnomalar, lug‘atlar, elektron resurslar va boshqalar) bilan ishlashni o‘rgatish uchun didaktik matnlar.

2. Kognitiv faoliyatning ayrim turlari bo‘yicha umumlashtirilgan rejalar: ilmiy faktlarni o‘rganish; eksperimentni tayyorlash va o‘tkazish; jismoniy qurilmani o‘rganish; ilmiy-texnik tadqiqotlar olib borish; o‘lchov harakatlari; funksional bog‘liqlik grafigini tahlil qilish; jadval tahlili.

3. Fikrlashning mantiqiy operatsiyalarini shakllantirish bo‘yicha eslatmalar (ko‘rsatmalar): taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, tahlil qilish, sintez qilish.

4. Taqqoslash, tahlil qilish, isbotlash, sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish, umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha topshiriqlar.

5. Turli darajadagi murakkablikdagi vazifalar: reproduktiv, transformativ, ijodiy.

6. Muammoli savollarga ega topshiriqlar.

7. Tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan vazifalar.

8. Eksperimental topshiriqlar.

9. Mustaqil tadqiqot usuli sifatida eksperiment maqsadini shakllantirish, eksperimental tadqiqot gipotezasini taklif qilish va asoslash, eksperimentni rejalashtirish bo‘yicha tavsiyalarni; kuzatishlar va o‘lchovlar natijalarini qayd etish usullari; o‘lchash qoidalarini, o‘lchov aniqligini baholashni; tajriba natijalarini grafik izohlashni; taxminiy hisob-kitoblar qoidalari; eksperiment natijalari bo‘yicha xulosani shakllantirishni; hisobot berish qoidalarini qamrab oluvchi eksperimentning umumlashtirilgan faoliyat modeli (EUM).

10. Yangi materialni o‘rganishning mantiqiy sxemasi va o‘rganishning zarur usullarini aks ettiruvchi ko‘rsatma kartalari.

11. Maslahat kartalari, tushuntirish chizmalari bilan didaktik materiallar, topshiriqlar turini ko‘rsatuvchi topshiriqlarni bajarish rejasi va boshqalar.

12. Amaliy ish va jamoaviy tajribalar uchun ko‘rsatmalar.

13. O‘quvchilarni amaliy darsiga o‘z-o‘zini tayyorlash varaqalari.

14. Ma’lumotnoma materiallari: “O‘quv jihozlari: qurilmalar, ularning maqsadi va texnik tavsiflari, foydalanish qoidalari”; “O‘lchov asboblari. O‘lchash texnikasidan foydalanish qoidalari va xususiyatlari”; fizik miqdorlar jadvallari va boshqalar.

15. Topshiriqni bajarish algoritmi.

16. Vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan sabab-oqibat bog‘lanishlarining ko‘rsatilishi.



17. Ular asosida topshiriq bajariladigan teoremlar, qoidalar, formulalarni ko'rsatish.

18. O'rganilayotgan yoki tekshirilayotgan ob'ektlar, jarayonlar yoki hodisalarning modellari va taqlidlari.

19. Haqiqiy tajriba yoki eksperimentni kompyuter dasturida simulyatsiya qilish sharoitida laboratoriya ishini o'tkazish (o'quvchi o'z istagiga muvofiq tajribalarning ilk parametrlarini o'zgartirishi, natijada hodisaning o'zi qanday o'zgarishini kuzatishi, o'z ko'rganlarini tahlil qilishi, tegishli xulosalar chiqarishi mumkin).

20. O'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini beruvchi testlar.

Shuni ta'kidlash kerakki, didaktik materiallardan foydalanish o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirishga, o'quv vaqtini tejashga yordam beradi.

Maqola doirasida shaxsga yo'naltirilgan, muammoli, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, keys-stadi, loyiha kabi qator umumpedagogik texnologiyalardan "Davlat va huquq asoslari" fanini o'qitish jarayonidan maqsadga yo'naltirilgan tarzda foydalanish orqali akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish yo'llari ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar:

1. Информация образование дидактика история методы и технологии обучения. Словарь ключевых понятий и определений. 2017. Ширшов Е.В. <https://didacts.ru/slovari/informaciya-obrazovanie-didaktika-istorija-metody-i-tehnologii-obuchenija-slovar-klyuchevyh-ponjatii.html>

2. Дидактическое обеспечение понятие, сущность. <https://5555455.ru/products/didakticheskoe-obespechenie-ponyatie-sushchnost>